[2]. Helbig G., Buscha J. Deutsche Grammatik: Ein Handbuch für den Ausländerunterricht. Langenscheidt, 2001.
[3]. Larina T.V. Kategoriya flourishes va ingliz muloqot madaniyati. Moskva,"Языки славянских культур", 2003.
[4]. Cho'lpon Abdulhamid. Kecha va kunduz. Toshkent, „Sharq", 2000.
[5]. Schlink, Bernhard. Der Vorleser. Zürich, Diogenes Verlag, 1995.
[6]. Thurmair Maria. Modalpartikeln und ihre Kombinationen. Tübingen, Niemeyer, 1989.
[7]. Anscombre Jean-Claude, Ducrot Oswald. L'argumentation dans la langue. Bruxelles, Mardaga, 1983.
[8]. Hyland Ken. Disciplinary Discourses: Social Interactions in Academic Writing. Michigan University Press, 2000.

Jabbarova Mashhura Jo'raqulovna (GulDU mustaqil tadqiqotchisi; djabbarova.21.06.83@gmail.com)

QURILISH TERMINLARINING PAYDO BO'LISHI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o'zbek tili qurilish terminologiyasining shakllanish manbalari va yangi terminlarning yuzaga kelishida ishtirok etuvchi lisoniy omillar tahlil qilinadi. Qurilish terminlarining paydo bo'lishida tilning ichki nominativ imkoniyatlari, umumiste'mol leksikasining terminlashuvi, so'z yasalishi, semantik ko'chish, metaforik nominatsiya hamda boshqa tillardan o'zlashuv jarayonlarining o'rni yoritiladi. Shuningdek, terminologik tizimning ichki va tashqi manbalari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, bir terminning shakllanishida bir necha nominativ mexanizmning ishtirok etish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Qurilish terminlarining shakllanishi va rivojlanishida mavjud leksik birliklarning yangi sohaviy tushunchalarni ifodalashga moslashuvi muhim jarayon sifatida baholanadi. Tadqiqotda qurilish terminologiyasining shakllanish manbalari o'zaro bog'liq lisoniy jarayonlar sifatida talqin qilinadi.*

Kalit so'zlar: *qurilish terminologiyasi, termin, atama, nominatsiya, terminlashuv, lisoniy omillar, ichki manba, tashqi manba, semantik ko'chish, o'zlashma terminlar.*

Жаббарова Машхура Джуракуловна (независимый исследователь Гулистанского государственного университета)

ФОРМИРОВАНИЕ СТРОИТЕЛЬНЫХ ТЕРМИНОВ

Аннотация. *В данной статье анализируются источники формирования строительной терминологии узбекского языка и лингвистические факторы, участвующие в возникновении новых терминов. Рассматривается роль внутренних номинативных возможностей языка, терминологизации общеупотребительной лексики, словообразования, семантического переноса, метафорической номинации, а также процессов заимствования из других языков. Особое внимание уделяется взаимосвязи внутренних и внешних источников терминологической системы и возможности участия нескольких номинативных механизмов в формировании одного термина. Адаптация существующих лексических единиц для обозначения новых специальных понятий рассматривается как важный процесс формирования и развития строительной терминологии. В исследовании источники формирования строительной терминологии интерпретируются как взаимосвязанные лингвистические процессы.*

Ключевые слова: *строительная терминология, термин, наименование, номинация, терминологизация, лингвистические факторы, внутренний источник, внешний источник, семантический перенос, заимствованные термины.*

Jabbarova Mashhura Jo'raqulovna (Independent Researcher at Gulistan State University)

THE FORMATION OF CONSTRUCTION TERMS

Annotation. *This article analyzes the sources of formation of construction terminology in the Uzbek language and the linguistic factors involved in the emergence of new terms. It examines the role of the language's internal nominative resources, the terminologization of general vocabulary, word formation, semantic transfer, metaphorical nomination, and borrowing from other languages in the development of construction terms. Particular attention is paid to the interrelationship between internal and external sources of the terminological system and the possibility of several nominative mechanisms contributing to the formation of a single term. The adaptation of existing lexical units to express new specialized concepts is considered an important process in the formation and development of construction terminology. The study interprets the sources of construction terminology formation as interconnected linguistic processes.*

Keywords: *construction terminology, term, designation, nomination, terminologization, linguistic factors, internal sources, external sources, semantic transfer, borrowed terms.*

Kirish. Har qanday terminologik tizimning tarkibiy boyligi, avvalo, yangi tushunchalarni nomlash ehtiyojiga javoban tilning qanday nominativ imkoniyatlardan foydalanishi bilan belgilanadi. Bunda mavjud umumxalq leksemalarining maxsuslashuvi, yangi so‘z va so‘z birikmalarining yasalishi, semantik ko‘chish, metaforik nominatsiya, o‘zlashuv, kalkalash, tarjima, boshqa terminologik tizimlarning ta’siri kabi omillar bir-biri bilan uzviy munosabatga kirishadi. Shuning uchun qurilish terminologiyasining manbalarini tadqiq etishda “ichki manba” va “tashqi manba” qarama-qarshiligini mutlaq chegara sifatida qabul qilish maqsadga muvofiq emas. Amalda bir terminning shakllanishida bir vaqtning o‘zida bir necha nominativ mexanizm ishtirok etishi mumkin. Atamadan terminga, terminning atamaga yo‘nalishi tabiiy kechadigan jarayon hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyatlar tahlili. Avvalambor “atama” so‘zining izohiga to‘xtalsak. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “atama 1 ayn. Termin. 2 umuman, nom” sifatida qaraladi [7;135-b.]. Atamaga ikki xil qarash mumkin, birinchidan, u umumiy nom – bir atama 4 ta termin vazifasini bajarishi mumkin: “inversiya (ona tilida) gap bo‘laklarining o‘zgargan tartibi (geometriyada); tekislik almashtirishlaridan biri (kimyoda); siklik molekula konformatsiyasining o‘zgarishi, natijada o‘rinbosarning halqaga nisbatan joylashishi o‘zgaradi (biologiyada); xromosomalarning qayta qurilishi (mutatsiya) tiplaridan biri”. Bunda atama tushunchasi termindan yuqoriqoq turadi. Ikkinchidan, hali termin sifatida e’tirof etilmagan, shunchaki yangi paydo bo‘lgan narsaning nomlab turilishi, keyinchalik, kishilik jamiyati bu atamani nom sifatida qabul qilib, termin sifatida e’tirof etsa, keyin ommalashadi: *mix, quvurma, o’qirmon, manqurt* kabi.

Biz ishimizda hali termin sifatida to‘liq o‘rinlashmagan atamalar haqida ham fikr yuritamiz. “Inson mehnat faoliyati bilan aloqador bo‘lgan har qanday kasb o‘tmishda ham, hozir ham o‘z terminologiyasini yaratgan va yaratib keladi” [1]. Shu sababli kishilar mehnat qilar ekan, yangi mahsulotlarga, yangi nomlarga ehtiyoj sezib boradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Qurilish terminologik tizimining shakllanishi va taraqqiyoti biror bir muayyan sohada yuzaga keladigan yangi tushunchalarni nomlash, mavjud tushunchalarni qayta nomlash, boshqa sohalarda shakllangan tushunchalarni qurilish terminlari amaliyotiga moslashtirish hamda ilmiy-texnik taraqqiyot natijasida paydo bo‘ladigan yangi nomlanuvchi ehtiyojlarni qondirish bilan chambarchas bog‘liq murakkab lisoniy jarayon hisoblanadi. “Kasb-hunarga oid terminlar o‘sha xalqning ishlab chiqarish bilan shug‘ullanuvchi jamoaning o‘zaro aloqasi, fikr almashishi natijasida yuzaga kelgan” [1]. Shu jihatdan, terminlarning yuzaga kelish manbalarini aniqlash sohaviy terminologiyaning tashqi tarkibini tavsiflashdan ko‘ra kengroq mazmunga ega bo‘lib, uning shakllanish mexanizmlarini, rivojlanish yo‘nalishlarini va ichki dinamikasini ochib berishni taqozo etadi.

Tahlil va natijalar. Qurilish terminologiyasining shakllanish manbalari masalasida rus olimasi F. Kostoyevaning quyidagi fikri alohida ahamiyatga ega: “Qurilish terminologiyasining rivojlanishi va keyingi boyishining ikkita asosiy manbasi mavjud: tilning o‘z leksik imkoniyatlaridan foydalanish va o‘zlashish jarayoni” [5;15-b.]. Mazkur fikr qurilish terminologiyasining rivojlanishida ikki asosiy yo‘nalish – ichki nomlanish va tashqi nomlanish mavjudligini ko‘rsatadi. Birinchi yo‘nalishda tilning o‘z imkoniyatlari ishga tushadi: umumxalq tilidagi tayyor birlik maxsus ma’no kasb etadi, so‘z yasash vositalari yordamida yangi birlik hosil qilinadi yoki mavjud leksemaning semantik tarkibida o‘zgarish yuz beradi. Ikkinchi yo‘nalishda esa yangi termin boshqa til yoki boshqa terminologik tizimdan o‘zlashtiriladi. Biroq ushbu ikki manba o‘rtasida doimiy o‘zaro ta’sir mavjud (gibrit terminlar shunday asosda hosil bo‘ladi: *bloklash, bolgarkalash, perforatorchi*...) bo‘lib, o‘zlashgan birlik ham yangi til muhitida ma’no, shakl va funksional jihatdan moslashadi.

Shu nuqtayi nazardan qurilish terminologiyasining shakllanishini faqat terminlarning kelib chiqishiga ko‘ra guruhlash bilan cheklab bo‘lmaydi. Termin qaysi manbadan kelganidan tashqari, u nima sababdan aynan shu shaklda tanlanganligi, qanday tushunish ehtiyojini qondirgani, terminologik tizimga kirgach qanday semantik maqomga ega bo‘lgani va boshqa birliklar bilan qanday munosabatga kirishgani ham tadqiq etilishi lozim. “Mehnat jarayonida yuzaga kelgan va ijtimoiy hodisalardan sanalgan til kishilik turmushini har taraflama va keng suratda o‘zida aks ettirdi” [2;96-b.]. Shu boisdan ayrim atamalarning termin sifatida paydo bo’lishi yoki kishilik jamiyatida o‘rinlashuvi tabiiy kechishi aniq. Demak, termin hosil bo‘lish manbasi va termin hosil bo‘lish usuli bir-birini to‘ldiruvchi, biroq aynan bir xil bo‘lmagan tushunchalardir.

Tadqiqot obyektlarining – qurilish terminlarining paydo bo‘lish manbalari, termin yoki atamaning qayerdan va qanday yo‘l bilan vujudga kelgani, tilga kirib kelgani yoki shakllangani tushunish muhim. Terminologiyada bu tushuncha, odatda, terminlarning kelib chiqish manbalarini aniqlashni anglatadi. Chunonchi, qurilish terminlari bo‘lgan *g‘isht* – qadimiy turkiy qatlamga mansub so‘z sifatida qaralsa, *beton* – fran-

suz tilidan o‘zlashgan: shuningdek, *armatura* – lotin tilidan, *siding* – ingliz tilidan, *kafel* – nemis tilidan rus tili orqali, *pena* – slavyan tilidan rus tili orqali, *travertin* – italyancha *travertino* so‘zidan kelib chiqqan.

Pena – etimologik jihatdan umumslavyan *“pĕna”* shakliga borib taqaladigan so‘z bo‘lib, rus tilidagi “пена” shakli ham aynan shu qadimgi shakldan kelib chiqqan. Etimologik lug‘atlarda uning ukrain, belarus, bolgar, serb-xorvat, chex, slovak, polyak va boshqa slavyan tillaridagi qarindosh shakllari ham qayd etilgan. O‘zbek qurilish leksikasida “pena” shaklining qo‘llanishi esa rus tilining ta’siri bilan bog‘liq bo‘lib, qurilish sohasida, xususan, “montaj ko‘pigi” ma’nosida ishlatiladi. Pena – qurilish tizimidagi atamalardan biri, bu so‘z “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da o‘z ifodasini topmagan bo’lsa-da, imlo lug’atida qanday yozilishi qayd etilgan. Qurilish ishlari va qurilishga oid ilmiy ishlarda qisman qayd etilgan. O‘zbekchada “ko‘pik” ma’nosini beradi, ammo “ko‘pik” so‘zi *pena* atamasini to‘liq qoplamaydi: *penablok – ko‘pikblok, penamontaj – ko‘pikmontaj* sifatida ishlatilishi mumkindir, biroq bu so‘zlarda *pena* qismi *ko‘pik* (yumchoq, ko‘pirib turadigan, vaqti kelgach, cho‘kadigan, kamayadigan, fizik jihatidan tok o‘tkazadigan) ma’nosida tushunilmaydi, aksincha, qurilish ashyosining bir qismi, qattiq jismning tarkibi – penadan hosil bo‘lganligini ko‘rsatadi. Z.Wang, X.Zhao va Y.Li ta’kidlaganidek, poliuretan ko‘pigi past zichligi hamda mayda g‘ovakli tuzilishi tufayli issiqlikni kam o‘tkazuvchi samarali qurilish materiali hisoblanadi [9]. Binobarin, bu atama qurilish terminlari qatorida turishi, izohli lug‘atlarda o‘rin olishi mumkin. Chunki bu atama xalqaro termin sifatida tan olingan, nominativligi mavjud so’zdir. Bunday birliklarni I.Pardayeva “Umumiste’moldagi istalgan so‘z kasb-kor, soha doirasida maxsus ma’noga ega bo‘lishi, termin ma’nosini anglatishi, termin vazifasini bajarishi mumkin” ekanligini qayd etadi [6;8-b.]. Shu sababli bunday atamalarni termin sifatida shakllangan birlik etib belgilash maqsadga muvofiqdir.

Qurilish terminlarining termin sifatida shakllanish manbalarini aniqlash ularning kelib chiqishi, o‘zbek tilining lug‘aviy tarkibiga kirib kelish yo‘llari hamda terminologik tizimda tutgan o‘rnini belgilash imkonini beradi. Qurilish terminlari o‘zbek tilining ichki imkoniyatlari asosida yaratilishi, umumturkiy va o‘zbekcha leksik qatlam negizida shakllanishi, boshqa tillardan o‘zlashtirilishi, xalqaro terminlar sifatida kirib kelishi, shuningdek, qisqartirish, kalkalash va gibridlanish kabi usullar orqali yuzaga kelishi mumkin.

Ayrim terminlarning paydo bo‘lishda bir nechta tillar ta’sir ko‘rsatadi. Bunday terminlar bir necha tillarda shaklan yaqin yoki bir xil ko‘rinishda qo‘llanadi va xalqaro ilmiy-texnik kommunikatsiya vositasiga aylangan. Qurilish sohasida *beton, sement, armatura, karkas, profil, konstruksiya, izolyatsiya, gidroizolyatsiya, granit, laminat, membrana, mastika, gips, montaj* kabi birliklar faol ishlatiladi. Ularning katta qismi yunon, lotin, fransuz, nemis va boshqa Yevropa tillariga borib taqaladigan etimologik manbalarga ega. Ayrim lug‘atlarda [8] ham *beton, armatura, izolyatsiya, granit, laminat, membrana, mastika* xalqaro terminlar qatorida ko‘rsatilgan. Mazkur guruhda ham etimologik manbasini va o‘zbek tiliga kirish yo‘lini farqlash lozim: *beton* fransuzcha *“béton”*, *gips* yunoncha *“gypsos”*, *klinker* nemischa *“klinker”*, *travertin* italyancha *“travertino”*, *marmar* yunoncha *“mármaros”*, *granit* esa lotincha *“granum”* so’zlaridan olingan. Shuningdek, zamonaviy qurilish terminologiyasida ingliz tilidan o‘zlashayotgan birliklarning salmog‘i ham ortib bormoqda. *“Siding”, “fitting”, “mixer”* kabi birliklar qurilish texnologiyalari va zamonaviy materiallar bilan birga kirib kelayotgan yangi terminologik qatlamni tashkil etadi. *“Siding”* tashqi devor qoplamasi, *“fitting”* quvurlarni ulash detali, *“mikser”* esa qorishmalarni aralashtirish qurilmasi (qorgich) ma’nolarida qo‘llanadi.

Sohaviy terminologiyalarning shakllanishida umumxalq leksikasi muhim ichki manba hisoblanadi. Chunki yangi ilmiy yoki kasbiy tushunchani ifodalash zarurati tug‘ilganda, til jamoasi har doim ham mutlaqo yangi fonetik tarkibli birlik yaratishga ehtiyoj sezmaydi. Ko‘pincha, kundalik kommunikatsiyada mavjud bo‘lgan, ma’lum narsa, belgi, harakat yoki munosabatni anglatuvchi so‘z yangi tushunchani nomlash uchun ixtisoslashtiriladi. Bunda so‘zning umumiy ma’nosi saqlanishi, torayishi, kengayishi yoki yangi sohaviy ma’no bilan boyishi mumkin. A.S.Derevyankina arxitektura terminologiyasining shakllanish manbasini tavsiflar ekan, quyidagicha xulosa qiladi: “Arxitektura terminologiyasi, yuqorida qayd etilgan tizimlar singari, umumiste’mol leksikasi asosida shakllangan” [4;1229-b.]. Mazkur fikr qurilish terminologiyasining ichki manbasini tushunishda muhim nazariy asos bo‘la oladi. Chunki arxitektura va qurilish insonning kundalik hayoti bilan bevosita bog‘liq sohalar bo‘lib, ularning dastlabki tushunchalari ham bevosita insonning amaliy faoliyati jarayonida shakllangan. *Uy-joy qurish, devor ko‘tarish, tom yopish, ustun o‘rnatish, yo‘l solish, material tayyorlash* kabi jarayonlar ilmiy terminologiya shakllanishidan ancha oldin mavjud bo‘lgan amaliy faoliyat turlaridir. Shu sababli qurilish terminologiyasining tarixiy qatlamida umumxalq leksikasi bilan kasbiy leksika o‘rtasidagi chegara har doim ajralib turmaydi.

Umumxalq leksemasining terminologik birlikka aylanishida asosiy o‘zgarish uning muloqot vazifasi va ma’no anglatish maqomida yuz beradi. Oddiy nutqda muayyan narsa yoki harakatning umumiy nomi

bo‘lib xizmat qilgan birlik professional diskursda aniq bir tushunchaning nomiga aylanadi. Natijada so‘z maxsus muloqot vazifasini bajaradi. Shu sababli terminlashuvni faqat “so‘zning ma’nosi o‘zgarishi” sifatida emas, balki uning funksional qayta ixtisoslashuvi sifatida ham baholash mumkin. Bu jarayonda terminlashayotgan so‘zning ma’no tarkibida maxsuslashtiruvchi semalar paydo bo‘ladi. Umumxalq tilida kengroq ma’noni anglatgan birlik qurilish sohasida muayyan tuzilmaviy element, material, jarayon yoki texnologik amalni ifodalashi mumkin. Bunday ixtisoslashuv natijasida terminning qo‘llanish sohasi torayadi, biroq uning professional kommunikatsiyadagi ma’lumot tashish qiymati ortadi.

Xulosa va takliflar. Mazkur jarayonda yangi qurilish obyektining muayyan xususiyati avvaldan ma’lum bo‘lgan narsa yoki hodisa bilan qiyoslanadi va mavjud nom yangi maxsus tushunchani ifodalash uchun terminologik vazifaga jalb etiladi. Natijada umumiste’mol leksikasiga mansub birlik kasbiy qo‘llanish doirasida semantik jihatdan ixtisoslashib, qurilish terminologiyasining tarkibiy birligiga aylanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Pardayeva I. Zargarlik terminlarining tematik tasnifi. Journal of Universal Science Research. 2023, vol. 1, 5-son.

(2). Pardayeva I.X., Ro‘ziqulov Sh.I., O‘razov A.D. Zargarlik terminlarining tematik tasnifi // Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования. 2025, т. 4, № 7, с. 96.

(3). Uralov A. O‘zbek tili morfologik shakllar tizimida nomutanosiblik. Filol.f.d. diss. avtoref., Samarqand, 2024, 267-bet.

(4). Деревянкина А.С. Достижения и перспективы изучения архитектурной терминологии в рамках различных направлений терминоведения. Бюллетень медицинских Интернет-конференций. 2013, Саратов, 3. № 11, с. 1229.

(5). Костоева Ф.М. Строительная лексика ингушского языка. Автореф. дис. … канд. филол. наук, Магас, 2015, с. 15.

(6). Пардаева И. Ўзбек тилининг заргарлик терминологияси. Гулистон, “Nodirabegim”, 2020, 8-bet.

(7). Ўзбек тилининг изоҳли луғати, I жилд. Тошкент, Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2006, 113–135-betlar.

(8). https://mlvv.tezaurs.lv/_search/e?utm_source=chatgpt.com

(9). https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S2352710226013951?utm_source=chatgpt.com

Ziyadullayev Abubakir Ibodulla o‘g‘li (Samarqand davlat Chet tillar instituti katta o‘qituvchisi, Samarqand, O‘zbekiston; E-mail: abubakirziyo95@gmail.com)

“GORIO OTA” VA “O‘TKAN KUNLAR” ROMANLARIDA OTA OBRAZINING LINGVOPOETIK TALQINI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Onore de Balzakning “Gorio ota” va Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanlarida ota obrazining lingvopoetik reprezentatsiyasi qiyosiy aspektda tadqiq etilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi ikki romanda ota obrazini shakllantiruvchi leksik, frazeologik, sintaktik, metaforik, emotsional-ekspressiv va dialogik vositalarni aniqlash hamda ularning badiiy-estetik funksiyasini ochib berishdan iborat. Gorio ota obrazining nutqida qo‘llangan père, mes filles, mon cœur, mon sang, ma vie kabi birliklarning semantik-pragmatik xususiyatlari, takror, metafora, undov, ritorik savol va gradatsiyaning obraz yaratishdagi o‘rni tahlil qilingan. Yusufbek hoji obrazida o‘g‘lim,bolam, dada, bizni kechir kabi murojaat va nutqiy konstruksiyalar, nasihat, savol-javob, kechirim so‘rash va vazmin dialogning ota obrazini shakllantirishdagi roli ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *lingvopoetika, badiiy obraz, ota obrazi, ota konsepti, Gorio,Yusufbek hoji, “Gorio ota”, “O‘tkan kunlar”, metafora, murojaat, takror, dialog, monolog, emotsional-ekspressivlik, qiyosiy tahlil.*

Зиядуллаев Абубакир Ибодуллаевич (старший преподаватель Самаркандского государственного института иностранных языков, Самарканд, Узбекистан; E-mail: abubakirziyo95@gmail.com)

ЛИНГВОПОЭТИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ОБРАЗА ОТЦА В РОМАНАХ «ОТЕЦ ГОРИО» И «МИНУВШИЕ ДНИ»

Аннотация. *В статье в сопоставительном аспекте исследуется лингвопоэтическая репрезентация образа отца в романах Оноре де Бальзака «Отец Горио» и Абдуллы Кадыри «Минувшие дни». Основное внимание уделяется лексическим, фразеологическим, синтаксическим, метафорическим, эмоционально-экспрессивным и диалогическим средствам, формирующим образ отца. Анализируются семантико-прагматические особенности единиц père, mes filles, mon cœur, mon sang, ma vie в речи Горио, а также функции повторов, метафор, восклицаний, риторических вопросов и*